

OILA VA UNING ETNOLOGIK JIHATDAN TADBIQ QILINISHI

Nurmanov Shahzodbek Mahmadorli o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

nurmanovshahzodbek02@gmail.com

***Annotatsiya:** mazkur maqolada oila va uning etnologik jihatdan tadbiq qilinishi o'rganilib, yakunda, muallif tomonidan mavzu yuzasidan tegishli xulosalar beriladi.*

***Kalit so'zlar:** oila, tarix, jamiyat, etnologiya.*

СЕМЬЯ И ЕЕ ЭТНОЛОГИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ

Нурманов Шахзодбек Махмадоли угли

Преподаватель кафедры общественных наук Ташкентской медицинской академии

nurmanovshahzodbek02@gmail.com

***Аннотация:** в данной статье рассматривается семья и ее этнологическое применение, и в заключение автор делает соответствующие выводы по данной теме.*

***Ключевые слова:** семья, история, общество, этнология.*

FAMILY AND ITS ETHNOLOGICAL APPLICATION

Nurmanov Shahzodbek Mahmadorli ugli

Teacher of the Department of Social Sciences, Tashkent Medical Academy

nurmanovshahzodbek02@gmail.com

***Abstract:** this article studies the family and its ethnological application, and at the end, the author gives relevant conclusions on the topic.*

***Keywords:** family, history, society, ethnology.*

Etnografiya fanida oila tarixi bo'yicha M.O.Kosven tadqiqotlari umumlashtiruvchi nazariy harakterga ega. Ko'pgina tadqiqotlar olib borgan, adabiyotlardan foydalangan muallif katta oilaning universalligini belgilabgina

qolmay, yangicha talqin qiladi. Uning fikricha, ko'pgina nomlar ichida eng qulayi "oilaviy jamoa" va «katta oila» atamalaridir. "Oila jamoasi deb yozadi Kosven, uch, to'rt, besh va undan ham ko'proq yaqin qarindoshlar avlodidan iborat bo'lgan kichik guruhdir. Xo'jalik mohiyati yer, ishlab chiqarish qurollari, uy hayvonlari va xo'jalik mol-mulkiga birga egalik qilish, birga ishlab chiqarish va birga iste'mol qilishdadir"¹. "Oilaning kelib chiqishi hali batamom oydinlashtirilgan emas, - deb yoziladi "Filosofiya lug'ati"da – mutaxassislarning aksariyati ibtidoiy jamoa tuzumining avvalida tartibsiz jinsiy aloqalar hukm surgan va u vaqtda oila hali bo'lmagan, bu aloqalar o'rnini gruppavoy nikoh egallagan, so'ngra esa mazkur jamiyat oilasining asosiy formasi sifatida juft oila paydo bo'lgan, deb hisoblashda davom etmoqdalar. Yangi tadqiqotlar bir qancha olimlarni eng avval boshdan juft oila mavjud edi, bu oila er va xotin urug'i bazasida (otalik davri, onalik davri) yashagan va qarindoshlikni ota tomondan ham, ona tomondan ham hisoblab borgan, degan xulosaga olib keldi"². Oila tarixiy kategoriya sifatida «kishilarning tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, bola tug'ish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro'zg'orni boshqarish), huquqiy (masalan, nikohni davlat yo'li bilan qayd etish), ma'naviy (er-xotin, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat tuyg'usi va boshqalar) munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi» bo'lib, uning xilma-xil shakllari va ko'p qirrali vazifalari mavjud ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarning tabiatiga, jamiyat ma'naviyati va madaniy taraqqiyotining darajasiga bog'liq holda yuzaga kelgan.

¹Косвен М.О. Семейная община и патронимия. Л., Наука, 1963, с.6.

²Фасмер. Этимологический словарь русского языка. Том 3. Москва: "Прогресс", 1971, с. 800.

Etnograflar oilani ikki turga - oddiy (“kichik”, “nuklear”, “individual” va shu kabilar) - uylanmagan bolalari yoki bolalarsiz nikohdagi bir juft (yoki bir ota-ona) dan iborat oilaga hamda murakkab (kengaygan tipdagi oila, “katta oila”) - ikki yoki undan ortiq oddiy oiladan tarkib topuvchi oilaga ajratadilar.³ Oilaning tarixiy shakllaridan biri bo‘lgan patriarxal - katta oila ota tomonidan qarindoshchilik, urug‘-aymoqchilikka asoslangan edi. An‘anaviy katta oila odatda bir necha og‘a-ini, ularning xotinlari, o‘g‘illari, kelinlari, turmushga chiqmagan qizlari va boshqa qarindoshlarni birlashtirgan. Bunday oila ikki yoki undan ortiq avlod vakillarida iborat bo‘lib, uning a‘zolari soni ba‘zan 100 kishidan ham ko‘proqni tashkil etgan.⁴

Oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, erkakning o‘zi yoki bir ayolning o‘zi oila bo‘lib shakllana olmaydi. Binobarin, oila avvalo, voyaga yetgan o‘g‘lon va qizning biologik – fiziologik ehtiyojlarini qondirish yo‘lidagi birligidir. Garchi ibtidoiy oila faqat shu maqsadda yuzaga kelgan bo‘lsa ham, davrlar osha bu maqsad o‘zgara bordi, nasl qoldirmoq, zurriyotni davom ettirmoq va shu asosda insoniyatning davomiyligini ta‘minlamoqdan iborat ijtimoiy ma’noga to‘yina bordi. Shu asnod qiz va yigit o‘rtasidagi jinsiy munosabat o‘z-o‘zidan sodir bo‘luvchi hayvoniy-instinktivlik ruhidan qutula borib, ularning bir-birlarini tanlab, sevib-sevilib, bir-birlariga o‘zlarini baxshida etish darajasidagi ichki ma’naviy ehtiyoj zahiridagi taqdiridoshlikka aylandi. Tabiiyki, oila er-xotindan tashqari yana urning ota-onasi, ya’ni qaynota va qaynonalar, farzandlar, uka va singillardan iborat ko‘p bo‘g‘inli xonadon. Uning har bir a‘zosi o‘z mavqeyiga ega holda shu oilaning ichki intizomiga bo‘ysunib yashaydi. Shu bois oila jamiyat ichidagi kichik

³Бромлей Ю.В., Кашуба М.С. Брак и семья у народов Югославии. Москва, Наука, 1982, с.103

⁴Саифназарова Ф. Ўзбек оиласи: ижтимоий ва аънавий қадриятлар. Т., 2007, 17-бет.

bir jamiyatdir. Bu jamiyatning o'z saltanati bor: bunda minglab tasodiflar jarayonida er-xotin muhabbati sinovdan o'tadi. Shu sinov jarayonida ular birlarini chuqurroq tushuna boradi, bir-birlarini qadrlashni o'rniga qo'yadigan bo'ladi, bir-birlariga kechirimli bo'lishadi, er-otaga, xotin-onaga aylanadi, farzandlarni tarbiyalab elga qo'shadi, orzu-havas ko'radi. Shu ma'noda oila inson hayotiga to'kislik baxsh etadi, jamiyatning muqaddas maskani sifatida sadoqat sarchashmasiga aylanadi.

Oila so'zining o'zbek tilida besh xil lug'aviy ma'nosi bor. Oila- er-xotin, ularning bolalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon.⁵ Uning boshqa ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lib, umumiy ma'noda birlashgan kishilar, xalq, mamlakatlar yoki o'simlik va hayvonlarni guruhlash, qardosh tillar guruhlarini aytish mumkin. Undan tashqari, lug'atda oila so'zi xotin, turmush o'rtoq ma'nolarida ham keladi.⁶

Umuman olganda oila nikohga yoki tug'ishkanlikka asoslangan kichik guruhdir. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy ma'suliyati bilan bir-biriga bog'langan.⁷ Oila jamiyatning bir bo'lagi, er-xotin va qarindoshchilik aloqalari ittifoqi asosida tuzilgan shaxsiy hayotning muhim shakli. Arastuning fikricha, oila-odamlarning birinchi muloqot ko'rinishidir. U dastlabki yacheyka bo'lib, undan davlat tashkil topgan. Yunon faylasufi bir necha oilalarni birlashuvini qishloq deb atab, uni oiladan davlatga o'tadigan forma, deb hisoblagan.

⁵Оила/ Узбек тилининг изоҳли луг'ати...- Б.97.

⁶Оила/Узбек тилининг изоҳли луг'ати...- Б.97.

⁷Семья.Социально-психологические и этические проблемы...-С.62.

Oilaning dastlabki va bosh vazifasi – demografik vazifasidir. Sirasini aytganda, oila nayinki jinsiy aloqani tartibga solish, balki zurriyotni davom ettirish ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy-biologik hodisa hisoblanadi. Qur’oni karimda ham er-xotinning yaqinlashuvidan asl muddao farzand talab qilish ekanligi «Baqara» surasining 223-oyatida maxsus ta’kidlangan: “Xotinlaringiz ziroatgohingizdir. Bas, ziroatgohingizga xohlagan holatingizda yaqinlashavering va o’zingiz uchun yaxshi amallar taqdim qilin”.⁸ Zero, farzand er va xotin munosabatlarini, demakki, oilani mustahkamlovchi ilohiy ne’matdir. Qizlarni chiqarayotganda keksalarning “Iloyo etagingdan ko’paygin, uvali-juvali bo’lg’in” deya alqashlari ham shundan qolgan. Farzandning dunyoga kelishi oilaninggina quvonchi emas, rost, bunda oila a’zolari ko’payadi, ammo hammadan avval shu farzand mansub bo’lgan xalq, millat ko’payadi, jamiyat to’lishadi. Shu ma’noda oilada qancha bola bo’lishi masalasi demografik siyosat asosini tashkil etadi. O’zbek xalqida esa qadimul ayyomdan ayolmandlik sharaf sanalib kelinadi. Zero, zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da farzand ko’rgan ayolni alqash, uni har gal bola tuqqanida bir tuyay bilan rag’batlantirish qonuniylashtirilgan. Aksincha, balog’atga yetib, qasddan turmush qurmayotgan qizni qopga solib 25 darra urish va yigitga tamg’a bosib, og’ir zanjirni beliga bog’lab yurishi bilan jazolash buyurilgan. Aftidan, bu talablar izsiz ketmagan, shekilli, balki xalqda ko’p farzandlilikka rag’bat uyg’otgan. Natijada “o’nta bo’lsa – o’rni boshqa, qirqta bo’lsa – qilig’i” degan aqida o’zbek oilasidagi bolaparvarlik ruhiyatini shakllantirgan. Shu boisdan o’zbeklarda tug’ilish nisbatan ko’proq ekan, bu

⁸Куръони Карим. Т.: “Чўлпон”, 1992, 27–6.

xalqimizdagi bolaparvarlik an'anasining ifodasi sanalmog'i shart. Oilaning xo'jalik va maishiy jihatdan alohida o'rin tutishi undagi munosabatlarning konservativligiga, oldingi tuzumlarga hos belgilarni saqlab qolishga sharoit yaratish natijasida oilaviy munosabatlarni o'rganish etnograflarda qimmatli tarixiy-qiyosiy ma'lumotlarni to'plash imkoniyatini beradi. Etnograflar katta patriarxal tipidagi oilalarni o'rganish borasida mehnat taqsimotiga, avlodlar orasidagi munosabatlar, moliyaviy muammolarning ham qilinish masalasiga va boshqalarga e'tibor qilinishi kerak. Zamonaviy oilalarni o'rganish ham amaliy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, nazardan chetga qolmaydi. Tarixiy taraqqiyot natijasida ayol va erkak o'rtasidagi nikoh munosabatlari qonuniy ko'rinishga kelgan. Bu nikoh insituti jamiyat tamonidan doimo qo'llab-quvvatlab kelinadi. Rizouddin Ibn Faxruddinning "Oila" asarida oila kemaga o'xshatilsa, ayol kishi kemandi hukmida bo'ladi deyilgan. Daryoda katta quvvatga ega bo'lgan, kema rul harakatiga ergashgan kabi, mamlakat ham oila ortidan, oila esa ayol harakati ortidan ergashadi. Oilaning ustuni ayol ekanini shundan ko'rishimiz mumkin-ki, hatto eng buyuk dargohda o'qiganlar ham avvalo onalardan, oiladan olgan tarbiyalari bilan yashaydilar. Bu tarbiyani har bir inson so'nggi kuniga qadar qalbida saqlaydi. O'tmishdagi muarrixlarining ta'kidlashicha, bir inson qanchalik boy-badavlat, martaba sohibi bo'lmasin, uning tarbiyasi ayoli bo'lmasa, uni baxtli deb bo'lmaydi. Shu sababdan ham sharqda, jumladan turkiy xalqlarda ham, ayollarning tarbiyasi bo'lishlari zarur va uning foydasi butun millat uchun ekanligi azaldan anglashilgan haqiqat edi. Ayollarning ham tarbiyasi, ilmiy, husnli, ahloqli bo'lishlari ularning bolalariga ko'chadi. "Har bir ayolning ahloqini, aqlini o'lchamoqchi bo'lsangiz, uning qo'l ostidagi bolaga boqing", degan ekan buyuk

zotlaridan biri. Sharqda azaldan bolaning tarbiyasida ota-onaning mavqei teng taqsimlangan. Hadisi shariflarda aytilishicha, har bir insonga ilm olish farzdir. Xoh erkak, xoh ayol bo'lsin, ilmu hunar ne'matlaridan bir xilda olishlari shartdir, deyiladi.

Oila va nikoh tushunchalari har doim bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib kelgan. Sababi oila nikoh asosida vujudga keladigan tabiiy jarayondir. Nikohning kelib chiqishi haqida turlicha nazariyalar va fikrlar mavjud bo'lib, ularni o'rganish jarayonida etnografiya uchun zarur bo'lgan ilmiy xulosalarga kelish mumkin bo'ladi. Avvalo nikoh va uning kelib chiqishi haqida to'xtalib o'tish joiz.

Er qonuniy tartibda oilani barcha a'zolarining, o'z farzandlarining xo'jayini deb e'lon qilingan. Qondoshlikni onalik chiziqlari bo'yicha hisoblash mumkin bo'lmay qolgan, uning o'rniga qarindosh-urug'chilikni otalik chizig'i, shajarasi bo'yicha hisoblab kelingan. Masalan, Napoleon kodeksida jumladan, otasi kimligidan qat'iy nazar "nikohda urug'langan bolaning otasi er hisoblanadi",-deb ta'kidlangan. Bu erkakni o'zining biologik jihatdan ham otalikning ishonchliligini ta'minlashga o'z xotinini begona erkak bilan aloqaga kirishish ehtimolini bartaraf etishga intilishlarini tug'dirdi. Xotindan vafodorlikni talab qilish ham, kelindan iffatlilikni talab qilish ham shundan kelib chiqqan. Hatto er ko'pincha xiyonat ustida tutib olingan xotinini o'ldirish uchun qonuniy huquqqa ham ega bo'lgan. Masalan, Fransiyada XIX asrning o'rtalarida ham xotinning eriga xiyonat qilganligi uchun unga 3 oydan 2 yilgacha qamoq jazosi belgilangan. Bu talablar (monogamiyaning bu turi) aslida faqat ayollar uchun tarqatilgan. Ayol kishi uchun jinoyat deb hisoblangan va jiddiy oqibatlariga (huquqiy va ijtimoiy) olib keluvchi hatti-harakat (masalan, turmush o'rtog'iga xiyonat qilish), erkak uchun, qandaydir

SJIF:5.219

obro‘ yoki juda yomon baholanganda unchalik ahamiyatli bo‘lmagan, fahr bilan «osib yurish» mumkin bo‘lgan axloqiy dog‘dek hisoblangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. M., “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.
2. Jabborov I.M. O‘zbek xalqi etnografiyasi. T., O‘qituvchi, 1994.
3. Bo‘riev O. Oila va yangi an‘analar: lektorga yordam. T., 1988.
4. Saifnazarova F. O‘zbek oilasi: ijtimoiy va a‘naviy qadriyatlar. T., 2007.
5. Бикжанова М.А. Семья и семейный быт в колхозах Узбекистана. Т.. 1959.
6. Бромлей Ю.В. Современные проблемы этнографии. М., Наука, 1981.